

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

IMPROVING FINANCIAL CONTROL IN BUDGETARY ORGANIZATIONS THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Jakhbarov Jamshidbek Tilavoldi ogli

Head of the Branch Department,
Main Department of Economy and
Finance of Fergana Region
E-mail: jamshid.jaxbarov@gmail.com

Abstract. This article examines the improvement of organizational and methodological foundations of public financial control in budgetary institutions, as well as the development of this process through modern digital technologies. The study analyzes scientific and practical approaches aimed at ensuring the targeted and efficient use of budget funds, assessing the effectiveness of expenditures, and establishing mechanisms for planning control activities based on risk analysis. In addition, proposals are presented to enhance cooperation among financial control entities and to unify the monitoring and statistical reporting of control results. The article also introduces concepts for increasing the transparency and efficiency of the public financial control system through digitalization.

Keywords: budgetary institutions, public financial control, methodological development, efficiency, control mechanisms, transparency, public finance, institutional reforms, digital technologies.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLİYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li

Farg‘ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi
DM sho‘ba boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratining tashkiliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari hamda mazkur jarayonni zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta‘minlash, ularning sarflanishi samaradorligini baholashning ilmiy-amaliy yondashuvlari, nazorat tadbirlarini xavf omillariga tayangan holda rejalashtirish mexanizmlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy nazorat subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, nazorat natijalari monitoringi va statistik hisobotlarini unifikatsiyalash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada budjet tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish orqali tizimning shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirish g‘oyalari ham ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: budjet tashkilotlari, davlat moliyaviy nazorati, uslubiy rivojlantirish, samaradorlik, nazorat mexanizmlari, shaffoflik, davlat moliyasi, institutsional islohotlar, raqamli texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N14>

Kirish. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlik va keskin o‘zgarishlar davlat moliyaviy nazoratining samarali tashkil etilishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida budjet xarajatlari yil sayin ortib bormoqda va 2025-yil uchun davlat budjeti xarajatlari 290 417,5 milliard so‘m bo‘lishi kutilmoqda. Bunday sharoitda budjet

tashkilotlarida moliyaviy nazorat hamda ichki audit xizmatlarini takomillashtirish orqali mablag'larning maqsadli hamda unumli sarflanishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir.

Shu bilan birga, "ichki audit, tashqi audit va moliyaviy nazorat davlat moliyasini boshqarishning eng zaif bo'g'inlari sifatida qolmoqda". Ushbu vaziyatda budjet mablag'laridan oqilona va natijador foydalanishni ta'minlash, davlat moliyaviy nazorati tizimini modernizatsiya qilish hamda budjet intizomini mustahkamlash davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Dunyo tajribasida davlat moliyaviy nazorati tizimida normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish, budjet xarajatlari samaradorligini baholash hamda ularning o'zaro optimal nisbatini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda moliyaviy nazoratning tashkiliy va metodik mexanizmlarini takomillashtirish, nazorat jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, budjet mablag'larining maqsadlilik va samaradorligini baholash, nazorat tadbirlarini xavf tahlili asosida rejalashtirish, tegishli idoralar faoliyatini uyg'unlashtirish hamda nazorat natijalari statistik hisobini yagona standart asosida yuritish kabi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan global iqtisodiy integratsiya sharoitida davlat moliyaviy nazorati tizimining xalqaro miqyosdagi samarali modeli va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar faollashgan.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimini auditga yo'naltirilgan tarzda transformatsiya qilish davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim omili sanaladi. Bu jarayonda amaldagi davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini funksional va institutsional nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, ularning faoliyatiga budjet xarajatlari natijadorligini o'rganish mexanizmlarini tatbiq etish zarurdir. Shu bois, davlat moliyaviy nazorati tizimini ilg'or xorijiy standartlarga moslashtirish, moliyaviy nazorat va audit funksiyalaridan foydalanishning eng maqbul shaklini ilmiy asosda tadqiq etish hamda budjet xarajatlari ijrosining sifat darajasini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish talab etilmoqda.

Mazkur ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O'RQ-1011-son "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [2] va 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari [3], 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi [4], 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari [5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PF-99-sonli (XDFU) "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va boshqa sohalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishiga ham ma'lum darajada ko'maklashadi.

Adabiyotlar tahlili. Moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati va budjet tizimidagi ichki auditning nazariy jihatlar hamda mavjud muammolari bo'yicha quyidagi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan: L.Doe, S.Pattanayak, A.Narcisa,

E.Hlaciuc, A.Zaiceanu, V.Munteanua, D.Zahariab, R.D.Koning, N.V.Milyakov, A.P.Zudilin, F.N.Axmedov, V.I.Samaruxa, I.V.Derevsova, S.Ye.Prokofyev, M.V.Melnik, A.S.Panteleev, A.L.Zvezdin, N.Yu.Isakova, Yu.A.Dolgix, A.G.Lachixina, S.O.Shoxin, N.S.Matveeva, S.A.Sannikov, S.Ye.Platonova, V.S.Lopatnikov, V.V.Mizinseva, V.V.Filippova. [6-12,15]

Mazkur yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar jarayonida mahalliy olimlar va tadqiqotchilar – A. Vaxobov, T. Malikov, N. Xaydarov, P. Jalilov, Z. Srojiddinova, M. To'laxo'jayeve, M. Ostonaqulov, A. Ibragimov, B. Sug'irbayev, I. Azizova, S. Mehmonov, M. Temirov, Sh. Qurbonov hamda B. Yuldashevlarning ilmiy ishlari o'rganilgan. [14-16]

O'zbekiston Respublikasida budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat hamda ichki audit xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, Jabborov A.A ning "Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish" nomli monografiyasida ushbu yo'nalishning amaliy jihatlari va takomillashtirish bo'yicha takliflar keng yoritib berilgan. [16]

Shunga qaramay, tahlil qilingan ilmiy manbalarda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati va auditini tashkil etishning zamonaviy jihatlarini yorituvchi turlicha yondashuvlar shakllangani kuzatiladi. Biroq davlat moliyaviy nazoratida muvofiqlikni ta'minlash va samaradorlikni baholashga oid yaxlit ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy model hali ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, mavjud ilmiy tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazorati konsepsiyasi doirasida moliyaviy nazorat va audit jarayonlarini uyg'un va parallel yo'nalishda tashkil etishning nazariy hamda amaliy asoslariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Mazkur muammoning dolzarbligi, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani hamda kutilayotgan natijalarning amaliy ahamiyati ushbu mavzuda tadqiqot olib borish zarurligini belgilab berdi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat hamda ichki audit xizmatini rivojlantirishga doir masalalarni o'rganishda bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil.** Mavzuga doir ilmiy manbalar, monografiyalar va maqolalar chuqur o'rganilib, budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit faoliyatiga oid dolzarb muammolar aniqlab berildi.
2. **Xalqaro tajribani o'rganish.** Moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati hamda budget tizimidagi ichki auditning nazariy asoslari va mavjud muammolari bo'yicha xorijiy olimlar tadqiqotlari tahlil qilindi.
3. **Statistik tahlil.** Budget tashkilotlarida amalga oshirilgan moliyaviy nazorat tadbirlari soni va aniqlangan moliyaviy xatoliklar darajasi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar solishtirilib, umumiy holat baholandi.
4. **Bashoratlash.** Tadqiqotdan olingan natijalar asosida kelgusida budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish va davlat resurslarining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi kunda iqtisodiy islohotlar va moliya siyosatini samarali amalga oshirish davlatning moliyaviy munosabatlarini boshqarishda asosiy vosita sanaladigan davlat moliyaviy nazorat tizimini chuqur isloh qilishni talab etadi. Moliya sohasidagi munosabatlarni takomillashtirish maqsadida hukumat tomonidan qator iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, davlat moliyaviy nazorati


jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi "Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-128-son qarori hamda 2024-yil 8-iyuldagi PF-99-son (XDFU) "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan.

Mazkur qaror va farmonlarda belgilangan qo'shimcha vazifalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish yo'nalishida "UzASBO" dasturiy ta'minoti hamda boshqa axborot tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, budjet tashkilotlarida monitoring, profilaktika va kameral nazorat tadbirlarini joriy etish yanada kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan 2023-yilda budjet intizomiga rioya etilishi va budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish holatini o'rganish bo'yicha 578 ta nazorat tadbirlari amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlarda 223 ta nazorat obyektida jami 42,81 mlrd so'mlik budjet intizomi buzilishi, pul hamda tovar-moddiy boyliklar kamomadi va asossiz xarajatlar aniqlanib, shundan 11,65 mlrd so'm (aniqlangan summaning 27,22 foizi) budjetga qaytarilishi ta'minlangan.

2024-yilda esa budjet intizomiga rioya etilishi bo'yicha 622 ta nazorat tadbiri o'tkazilib, 271 ta tashkilotda 72,6 mlrd so'm miqdorida moliyaviy xato va kamchiliklar qayd etilgan. Ushbu summadan 18,87 mlrd so'm (aniqlangan zararlarning 25,99 foizi) budjetga tiklangan.

Farg'ona viloyatida 2 600 dan ortiq nazorat obyektlari mavjudligini hisobga olgan holda, 2023-yilda nazorat qamrovi jami obyektlarning atigi 22 foizini, 2024-yilda esa taxminan 24 foizini tashkil etgan. Shuningdek, aniqlangan budjet intizomi buzilishi, kamomadlar va asossiz xarajatlar bo'yicha tiklash darajasi ham past bo'lib, 2023-yilda 27,22 foiz, 2024-yilda esa 25,99 foizni tashkil etgan.




1-rasm. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan aniqlangan budjet intizomini buzish, pul va tovar-moddiy boyliklar kamomadi va asossiz xarajatlar miqdorlari (Farg'ona viloyati bo'yicha) mlrd. so'mda.¹

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2023–2024-yillarda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati

¹ O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg'ona viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

inspeksiyasining Farg'ona viloyati boshqarmasi tomonidan aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar sezilarli darajada ko'paygan. Aniqrog'i, ularning hajmi 1,69 baravarga oshgan. Bu holat davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish jarayonida jiddiy islohotlar amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu qonunbuzarliklar tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda quyidagi holatlarni kuzatish mumkin.



2-rasm. Vazirliklar va idoralar bo'yicha moliyaviy xato-kamchiliklar sohalar kesimidagi dinamikasi mlrd. so'mda (Farg'ona viloyati bo'yicha).¹

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari vazirlik va idoralar kesimida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning tahlilini aks ettiradi. Jumladan, Suv xo'jaligi vazirligi tizimida o'tkazilgan 58 ta nazorat tadbirining 37 tasida jami 22,6 mlrd so'mlik qonunbuzilishlar aniqlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yildagi 3,77 mlrd so'mlik summaga nisbatan 5,86 baravarga oshgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimi bo'yicha 119 ta nazorat tadbirining 57 tasida 18,22 mlrd so'm miqdorida xato-kamchiliklar aniqlangan, bu esa 2023-yildagi 9,96 mlrd so'mga nisbatan 1,83 baravarga ko'paygan. Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida esa 121 ta tadbirning 40 tasida 9,94 mlrd so'mlik kamchiliklar qayd etilib, 2023-yildagi 3,13 mlrd so'mlik natijaga taqqoslaganda 3,17 baravar oshgan.

Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasida o'tkazilgan 31 ta nazorat tadbirining 25 tasida 9,63 mlrd so'm miqdorida buzilishlar aniqlangan bo'lib, bu ko'rsatkich ham 2023-yildagi 5,25 mlrd so'mga nisbatan 1,84 baravarga o'sish qayd etgan.

Hududiy hokimliklar bo'yicha 63 ta nazorat tadbirining 23 tasida 2,75 mlrd so'm miqdorida xato va kamchiliklar aniqlangan, bu esa 2023-yil natijasiga (0,82 mlrd so'm) nisbatan 3,36 baravar oshgan. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tizimida esa 16 ta tadbirning 11 tasida 1,4 mlrd so'mlik xatolar aniqlanib, 2023-yildagi 3,24 mlrd so'mga nisbatan 2,32 marta kamaygan.

Shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi (1,27 mlrd so'm), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (0,78 mlrd so'm), hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

¹ O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Farg'ona viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

(0,66 mlrd so'm) tizimidagi tashkilotlarda ham sezilarli miqdorda moliyaviy qonunbuzilishlar aniqlangan.

Xulosa va takliflar. Budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlikning ta'siri. Global miqyosda iqtisodiy beqarorlik, tezkor o'zgarishlar, davlat budjeti xarajatlari va taqchilligining ortishi, korrupsiya xavfining saqlanib qolayotgani davlat moliyasini boshqarish, xususan davlat moliyaviy nazoratini muntazam ravishda takomillashtirish zarurligini kuchaytirmoqda. Mazkur nazorat tizimi orqali amaldagi budget ijrosi tahlil qilinadi, baholanadi va olingan natijalar keyingi islohotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.
2. Davlat moliyaviy nazorati tarkibiy tuzilmasi. Davlat moliyaviy nazorati tizimi funksional nuqtai nazardan moliyaviy inspeksiya, ichki audit va tashqi audit bo'g'inlaridan tarkib topishi maqsadga muvofiq. Ushbu bo'g'inlarning vazifalari farqlanishi tufayli ularni aniq chegaralash zarur bo'lib, bu nazorat jarayonlarining o'zaro muvozanat va samaradorlikda olib borilishini ta'minlaydi.
3. Tizimlashtirish va avtomatlashtirish zarurati. Moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini oshirish uchun nazorat faoliyatini tizimli asosda tashkil etish, statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, axborot almashinuvi va muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, moliyaviy huquqbuzarliklar tasnifini ishlab chiqish va uni avtomatlashtirish tizimning yagona terminologi va "tili"ni shakllantiradi, bu esa qonunbuzilishlarning tizimli aniqlanishi va oldini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.
4. Natijaga yo'naltirilgan nazorat yondashuvi. Davlat moliyaviy nazoratini natijadorlik tamoyillari asosida takomillashtirish uchun uning funksional arxitekturasini qayta ko'rib chiqish, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish va baholash zarur. Shu nuqtai nazardan nazorat jarayonlarini maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini baholashga yo'naltirish audit funksiyalarining yanada rivojlanishini taqozo etadi.
5. Auditning maqomi va vazifalari. Davlat moliyaviy nazoratining yakuniy konsepsiyasida ichki va tashqi auditning asosiy vazifalari budget xarajatlarining samaradorligi, natijadorligi va xavflarni boshqarish tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilishi lozim. Shu orqali audit funksiyalari moliyaviy inspeksiyadan mustaqil yo'nalish sifatida ajralib chiqadi va o'zining alohida faoliyat doirasiga ega bo'ladi.
6. Xavflarni baholash tizimini kuchaytirish. Moliyaviy xato va kamchiliklar miqdorining ortib borayotgani budget tizimida hanuz tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois xavf tahlili va baholash mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji ortib bormoqda. Bu jarayonga raqamli texnologiyalarni keng jalb qilish nazorat samaradorligini yanada oshiradi.
7. Tashkiliy tuzilmani mustahkamlash. Davlat moliyaviy nazoratining institutsional arxitekturasini hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asoslanishi zarur. Ya'ni ijro hokimiyati tarkibidagi ichki nazorat organlari bilan birga, parlamentga bo'ysunuvchi tashqi nazorat organlari (masalan, Hisob palatasi) mustaqil faoliyat yuritishi shart. Bunday yondashuv nazoratning shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi.
8. Axborot tizimlarini integratsiya qilish. Budget tashkilotlarining buxgalteriya va inson resurslari bo'limlari tomonidan qo'llanilayotgan dasturlarni o'zaro integratsiya qilish, ayrim tizimlarni birlashtirib yagona axborot platformasini yaratish zarur. Jumladan,

UzASBO dasturiy majmuasini quyidagi davlat axborot tizimlari bilan to'liq integratsiyalash va avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- my.args.uz (Davlat fuqarolik xizmati portali)
- edo.iyro.uz (Idoralararo hujjat aylanishi tizimi)
- dmbat.uz (Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi)
 - pd.gov.uz (Shaxsga doir ma'lumotlar reyestri)
 - itmed.uz (SSV axborot tizimi)
 - customs.uz (Davlat bojxona qo'mitasi)
 - xarid.uzex.uz (Davlat xaridlari elektron tizimi)
 - my.soliq.uz (Elektron soliq xizmatlari)
 - invoice.uzasbo.uz (Elektron hisob-fakturalar tizimi)
 - cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
 - mib.uz (Majburiy ijro byurosi)
 - davlatauditi.uz (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Davlat auditi" dasturiy kompleksi)
 - my.gov.uz (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali)

Ushbu tizimlar o'rtasidagi integratsiyani yanada takomillashtirish va inson omilini maksimal darajada kamaytirish (avtomatlashtirish) moliyaviy nazoratning shaffofligi va aniqligini sezilarli oshiradi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-7277618>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5607471>
4. <https://lex.uz/uz/docs/-3323258>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-5858712>
6. Lubin Doe, Pattanayak Sailendra Financial control in african countries. Public Financial Management Technical Guidance Note February 2008,4.
7. Munteanua V., Zahariab D. Current Trends in Internal Audit. 5th World Conference on Educational Sciences 2013, ScienceDirect, Procedia - Social and Behavioral Sciences 116 (2014) 2239 - 2242.
8. Koning Robert. Public internal financial control. 2007.
9. Самаруха В.И., Деревсова И.В. Государственный финансовый контроль в российской федерации Учебное пособие Иркутск Издательство БГУ 2018 8-стр.
10. Миляков Н.В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г.
11. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г.
12. Прокофьев С.Е. Новации в сфере государственного финансового контроля, осуществляемого казначейством россии Финансы и кредит 10 (634) - 2015 3-стр.
13. Мелник М.В., Пантелеев А.С., Звездин А.Л. Ревизия и контроль учебного пособия Москва ИД ФБК-ПРЕСС 2003 23.
14. Vaxobov A., Malikov T. "Moliya" (darslik), Noshir, 2011.
15. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. "Budjet-soliq siyosati" (o'quv qo'llanma), Iqtisod-moliya, 2011.
16. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. "Budjet nazorati va auditi" (o'quv qo'llanma), infoCOM.UZ, 2010.
17. Jabborov A.A, "Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish", monografiya, Chinor fayzi baland Toshkent 2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).